




# SOFTPOS TEXNOLOGIYASI



## FOYDALANUVCHINING QO'LLANMASI

# Mundarija

1. Izoh .....	3
2. Atamalar .....	3
3. Muqqadima .....	3
4. "MARTA Terminal" to'lov yechimining umumiy tavsifi .....	4
5. Ilova bilan ishlash.....	4
5.1. Xizmatni ulash.....	4
5.2. Ilovani faollashtirish.....	5
5.3. "To'lov" operatsiyasi.....	9
5.4. Ilovaning menyusi.....	11
5.4.1. "Karta balansi" operatsiyasi.....	11
5.4.2. "To'lovlar tarixi" funksiyasi.....	12
5.4.3. "Kunlik hisobotlar" funksiyasi.....	12
5.4.4. "Shaxsiy kabinet" funksiyasi .....	13
5.4.5. "Sozlamalar" funksiyasi .....	13
5.4.6. "PoS haqida" funksiyasi .....	14
5.4.7. "Chiqish" funksiyasi .....	14
6. Shaxsiy kabinet bilan ishlash.....	15
6.1. Bosh sahifa.....	16
6.2 Shaxsiy kabinetning menyusi.....	17
6.3 Bo'lim: Savdo shaxobchalari .....	18
6.4 Bolim: POS terminallar.....	19
6.5 Bo'lim: Tranzaksiya kanallari .....	20
6.6 Bo'lim: Tranzaksiyalar .....	21
6.7 Bo'lim: Hisobotlar .....	22
8. Dasturning ta'minotchisi haqida.....	22

## 1. Izoh

Ushbu hujjatda HUMO, VISA, MasterCard to'lov tizimlarining bank to'lov kartalaridan foydalangan holda, Android operatsion tizimida ishlaydigan va NFC o'rnatilgan smartfonlar orqali to'lovlarni qabul qilishda MARTA Terminal dasturidan (keyingi o'rinlarda Ilova deb nomlanadi) foydalanish qo'llanmasi va foydalanuvchining shaxsiy kabinetining qo'llanmasi yoritilgan.

## 2. Atamalar

- NFC – taxminan 10 sm masofada simsiz ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi (antenna, odatda qurilma ichiga o'rnatilgan).
- SoftPOS – smartfon orqali naqd pulsiz to'lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi savdo uchun to'lov yechimi.
- USSD – GSM tarmoqlarida ishlaydigan xizmat bo'lib, foydalanuvchining xizmat ko'rsatish bo'limi bilan (server) real vaqt rejimida, Internetga ulanmasdan, qisqa xabarlarni jo'natish orqali o'zaro aloqani ta'minlaydi.
- Ilovani avtorizatsiya qilish – konfiguratsiya serveridan shifrlangan konfiguratsiya fayllarini yuklab olish va bank kartalaridan to'lovlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun konfiguratsiya fayllarini shifrlash uchun foydalaniladigan parolni kiritish tartiblarini o'z ichiga olgan chora-tadbirlar;
- Ekvayring bank (Foydalanuvchiga xizmat ko'rsatuvchi bank) – bank kartalarini (terminallar, bankomatlar) qabul qilish punktlarini tashkil etuvchi va ushbu punktlarda bank kartalari bilan hisob-kitoblar va to'lovlar bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradigan tashkilot.
- Ilovaning konfiguratsiya fayllari – MARTA serveri orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shifrlangan fayllar.
- Mobil qurilma - mobil telefon, yoki Android 8.0 va undan yuqori versiyalarda ishlaydigan boshqa mobil qurilma.
- Foydalanuvchi – yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda, o'zi sotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarni EMV kartalaridan MARTA Terminal ilovasi orqali naqd pulsiz to'lovlarni qabul qiluvchi tadbirkorlik sub'ekti.
- Terminal – smart-kartani o'quvchi mobil uskuna.

## 3. Muqqadima

Ilova kamida Android operatsion tizimining 8-versiya proshivkasi bo'lgan, GPRS/3G/4G yoki Wi-Fi aloqa modullari bilan jihozlangan va NFC moduli mavjud bo'lgan smartfonlarda ishlaydi. Amaliyot davomida Ilova MARTA xizmati (server) bilan shifrlangan shaklda ma'lumot almashadi, server esa, o'z navbatida, Ekvayring-bankning protsessing/to'lov tizimi bilan o'zaro himoyalangan ma'lumot almashadi.

Ilova rasmiy Android ilovalari do'konlari - Google Play orqali tarqatiladi. Ilovada bank to'lov kartalari bilan operatsiyalarni to'g'ri bajarish uchun barcha kerakli tizim sozlamalari mavjud.

Ilova HUMO to'lov tizimining va VISA va MasterCard xalqaro to'lov tizimlarining bank to'lov kartalari bilan quyidagi operatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.:

- Tovarlar (xizmatlar) uchun to'lov qabul qilish;
- To'lovni bekor qilish;
- Ushbu smartfonda qabul qilingan to'lovlarni tarixini ko'rish;
- Ish kunini yopish (avtomatik ravishda qilinadi);
- Karta balansini tekshirish (faqat HUMO kartalari uchun)

## 4. "MARTA Terminal" to'lov yechimining umumiy tavsifi

Ilova Android 8.0+ operatsion tizimiga ega mobil qurilmaga (smartfon) yuklanadi. Bitta mobil qurilmada bir vaqtning o'zida faqat bitta Ilova va bitta faol akkaunt ishlashi mumkin.

MOBIUZ va UCELL uyali aloqa operatorlari abonentlari uchun (kelajakda ushbu ro'yxat o'zgarishi va to'ldirilishi mumkin) Ilova serverga to'lov ma'lumotlarni Internet (GPRS, WiFi va boshqalar) orqali ham, USSD so'rovlar orqali ham (Internetga ulanish yo'q bo'lganda) o'tkaza oladi. O'tkazish usulini tanlash Ilova tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Ilova va server o'rtasidagi ma'lumotlar faqat kriptografik shifrlangan shaklda uzatiladi.

## 5. Ilova bilan ishlash

### 5.1. Xizmatni ulash

Ilova orqali bankdagi hisob raqamga to'lovlarni qabul qilish uchun, Ilova ushbu bankdagi hisob raqamga ulangan bo'lishi kerak va buning uchun ro'yhatdan o'tish uchun ariza berish kerak. Ro'yhatdan o'tishga ariza berish uchun:

1. Foydalanuvchi bank bilan bog'lanib, tranzit hisobini ochish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish tartibidan o'tishi kerak.
2. Bank xodimi Foydalanuvchini MARTA boshqaruv panelida ro'yhatdan o'tkazishi va Foydalanuvchi uchun virtual terminalni ishga tushirishi kerak.
3. Foydalanuvchi muvaffaqiyatli ro'yhatdan o'tganligi haqida bildirishnoma/SMS va Google Play'dagi Ilovaning sahifasiga havolani olishi kerak.
4. MARTA Terminal ilovasini o'rnatish uchun Foydalanuvchi o'zining Google akkaunti orqali Google Play ilovasiga kirishi kerak. Qidiruvdan foydalanib, "MARTA Terminal" nomli ilovani topish (yoki MARTA SMS-dagi havolani ochish) va uni oddiy Android ilovasi kabi mobil smartfonga o'rnatish kerak.

## 5.2. Ilovani faollashtirish


Ilova o'rnatilgandan so'ng darhol ishga tushirilishi mumkin. SoftPOS funksionaliga Ilovani avtorizatsiya qilib va Ilova konfiguratsiya fayllarini yuklab olgandan keyin kirish mumkin. Terminalni telefon raqami orqali (1 - Rasmga qarang. Telefon raqami orqali avtorizatsiya) va QR kod yordamida (2 - Rasmga qarang. QR kod orqali avtorizatsiya) avtorizatsiya/faol qilish mumkin.

### 1 - Rasm. Telefon raqami orqali avtorizatsiya



1.a - Rasm

Ilova birinchi marta ishga tushirilganda, Foydalanuvchi interfeys tilini tanlaydi.




1.b - Rasm

Davom etish uchun Foydalanuvchi ommaviy ofertaga rozi bo'lishi kerak.




1.d - Rasm

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish paytida terminalga ulangan telefon raqamini kiritishi kerak.




1.e - Rasm

Foydalanuvchi raqamni kiritadi va "Keyingi" ko'rsatkichini bosadi.



1.f - Rasm

Foydalanuvchi belgilangan raqamga vaqtinchalik avtorizatsiya kodini oladi.




1.g - Rasm

Ilova kodning haqiqiylikini tekshiradi.



1.h - Rasm


Foydalanuvchi Ilovaga keyinchalik kirish uchun PIN kodni o'rnatishi kerak.



1.i - Rasm


Terminal foydalanishga tayyor.

## 2 - Rasm. QR kod orqali avtorizatsiya



2.a - Rasm


Faollashtirish uchun SoftPOS terminalining QR kodini olish uchun Foydalanuvchi Shaxsiy kabinetga kirishi kerak (13 – Rasmga qarang. Avtorizatsiya sahifasi).



Egasi / foydalanuvchi Qurilma ID si	Model & versiya	Bank	Telefon	Yaratilgan vaqti	Ishga tushirilgan	Tranzaksiyalar	Oxirgi tranzaksiya	Holat
OOO MAYASOFT c90f0982c49740e5b04d- 69e0b8b6e5af	samsung, SM- A115F v.71		998911111111	19.08.22 12:39	19.10.22 15:09	27 dona	17.10.22 04:30	Ruxsat etilmagan
OOO MAYASOFT 1882711e3d034a58bd02- 654f9ea556d	samsung, SM- A115F v.63		998910001111	29.07.22 17:56	22.09.22 05:58	26 dona	21.09.22 12:28	Faol
OOO MAYASOFT 68ed598232a94e98bcb8a- 509f002e0f	samsung, SM- A115F v.71		998000000001	29.07.22 17:38	12.10.22 20:26	26 dona	12.09.22 12:17	Faol

2.b - Rasm


Shaxsiy kabinetda avtorizatsiyadan so'ng Foydalanuvchi kabinetning menyusidagi POS terminallar sahifasiga o'tishi kerak.



Egasi / foydalanuvchi Qurilma ID si	Model & versiya	Bank	Telefon	Yaratilgan vaqti	Ishga tushirilgan	Tranzaksiyalar	Oxirgi tranzaksiya	Holat
OOO MAYASOFT c90f0982c49740e5b04d- 69e0b8b6e5af	samsung, SM- A115F v.71		998911111111	19.08.22 12:39	19.10.22 15:09	27 dona	17.10.22 04:30	Ruxsat etilmagan
OOO MAYASOFT 1882711e3d034a58bd02- 654f9ea556d	samsung, SM- A115F v.63		998910001111	29.07.22 17:56	22.09.22 05:58	26 dona	21.09.22 12:28	Faol
OOO MAYASOFT 68ed598232a94e98bcb8a- 509f002e0f	samsung, SM- A115F v.71		998000000001	29.07.22 17:38	12.10.22 20:26	26 dona	12.09.22 12:17	Faol

2.d - Rasm

Faollashtirish uchun QR kodni olishga faollashtirmoqchi bo'lgan terminalni tanlash va o'ng tarafdagi QR kod belgisini bosish kerak.




2.e - Rasm

Ushbu QR kodni Ilova orqali skanerlash kerak.




2.f - Rasm

Skaner funksiyasini chaqirish uchun Foydalanuvchi Ilovadagi QR kod belgisini bosishi kerak.



2.g - Rasm

Skaner funksiyasini chaqirgandan so'ng, Foydalanuvchi kamerani Shaxsiy kabinetda ochilgan QR kodiga yo'naltirishi kerak (2.e - Rasmga qarang).




2.h - Rasm

QR kod skanerlangandan so'ng, Ilova kodning haqiqiylikini tekshiradi va kerakli konfiguratsiyalarni yuklaydi.



1.i - Rasm

Foydalanuvchi Ilovaga keyinchalik kirish uchun PIN kodni o'rnatishi kerak.



1.j - Rasm


Terminal foydalanishga tayyor.



### 5.3. "To'lov" operatsiyasi


Avtorizatsiyadan so'ng illova to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini beradi (3 - Rasmga qarang. PIN-kodsiz "To'lov" operatsiyasi va 4-Rasmga qarang. PIN-kod bilan "To'lov" operatsiyasi).

#### 3 - Rasm. PIN-kodsiz "To'lov" operatsiyasi




3.a - Rasm

Foydalanuvchi smartfonning sensorli klaviaturasiga kerakli miqdorni kiritadi va "To'lov" tugmasini bosadi.




3.b - Rasm

Foydalanuvchi karta egasidan smartfonga ekranda ko'rsatilgan to'lov tizimlaridan birining kontaktless kartasini tekkazishni so'raydi.



3.d - Rasm


Agar tranzaksiya muvaffaqiyatli bo'lsa, illova avtorizatsiya natijasini "Tasdiqlangan" holati bilan ko'rsatadi.



3.e - Rasm


Karta egasiga SMS yoki messenjer orqali ulashilishi, shuningdek, termal printerda chop etilishi mumkin bo'lgan elektron chek taqdim etiladi.

#### 4-Rasm. PIN-kod bilan "To'lov" operatsiyasi




4.a - Rasm

Foydalanuvchi smartfonning sensorli klaviaturasiga kerakli miqdorni (bu holda 50 000 UZSdan kattaroq summa) kiritadi va "To'lov" tugmasini bosadi.




4.b - Rasm

Foydalanuvchi karta egasidan smartfonga ekranda ko'rsatilgan to'lov tizimlaridan birining kontaktiz kartasini tekkazishni so'raydi.



4.d - Rasm

Karta topilgandan so'ng, Ilova kartaning PIN kodini kiritishni talab qiladi.



4.e - Rasm

Agar tranzaksiya muvaffaqiyatli bo'lsa, Ilova avtorizatsiya natijasini "Tasdiqlangan" holati bilan ko'rsatadi.




4.f - Rasm

Karta egasiga SMS yoki messenger orqali ulashilishi, shuningdek, termal printerda chop etilishi mumkin bo'lgan elektron chek taqdim etiladi.


## 5.4. Ilovaning menyusi

### 5 – Rasm. Ilovaning menyusi



5.a - Rasm

Ilovalar menyusiga kirish uchun belgi.



5.b – Rasm

Ilovaning menyusi.


Muvaffaqiyatli avtorizatsiyadan so'ng Foydalanuvchi darhol "To'lov" rejimiga o'tadi. Yuqori chap burchakda Ilova sozlamalari ro'yxati – Menu mavjud (5.a-Rasmga qarang).

Ilova menyusi bo'limida (5.b-Rasmga qarang) quyidagi funksiyalar mavjud:

- Karta balansini tekshirish;
- Qabul qilingan to'lovlar tarixini ko'rish;
- Ish kunlari bo'yicha hisobot;
- Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga kirish;
- Ilova sozlamalari;
- SoftPOS haqida ma'lumot;
- Akkauntndan chiqish.


### 5.4.1. "Karta balansi" operatsiyasi

#### 6 - Rasm. "Karta balansi" operatsiyasi




6.a - Rasm

Karta balansini tekshirish uchun Ilovaning menyusida ushbu operatsiyani tanlash va kartani smartfonga tekkazish kerak.



6.b - Rasm

Karta topilgandan so'ng, Ilova kartaning PIN kodini kiritishni so'raydi.




6.d - Rasm


Agar PIN-kod to'g'ri kiritilgan bo'lsa, Foydalanuvchiga karta balansidagi summa taqdim etiladi.

## 5.4.2. "To'lovlar tarixi" funksiyasi


7 – Rasm. "To'lovlar tarixi" funksiyasi



7.a - Rasm



7.b - Rasm



7.d - Rasm


Ilovadan foydalangan holda qabul qilingan barcha to'lovlarni kuzatish uchun Menyuda "To'lovlar tarixi" funksiyasini tanlash kerak.

Operatsiyalardan birini tanlaganda, ushbu to'lovning elektron chekini ko'rish mumkin.


Elektron chek SMS yoki messenger orqali yuborilishi, shuningdek, printerda chop etilishi mumkin.

## 5.4.3. "Kunlik hisobotlar" funksiyasi


8 - Rasm. "Kunlik hisobotlar" funksiyasi



8.a - Rasm



8.b - Rasm



8.d -Rasm


Har bir ish kunining to'lovlar haqidagi ma'lumotlarni kuzatish uchun Ilovaning menyusida "Kunlik hisobotlar" funksiyasini tanlash kerak.

Ish kunining tafsilotlarini ko'rish uchun ushbu ish kunini ustiga bosish kerak.

Ish kunining ma'lumotlari chek shaklida ko'rsatiladi. Chek SMS yoki messenger orqali yuborilishi, shuningdek, printerda chop etilishi mumkin.


#### 5.4.4. "Shaxsiy kabinet" funksiyasi

9 – Rasm. "Shaxsiy kabinet" funksiyasi



9.a - Rasm

Shaxsiy kabinetga kirish uchun menyuda "Shaxsiy kabinet" funksiyasini tanlash kerak.




9.b - Rasm

Ushbu havola Shaxsiy kabinetning avtorizatsiya qilish sahifasiga olib boradi (13 - Rasmga qarang. Avtorizatsiya sahifasi).


#### 5.4.5. "Sozlamalar" funksiyasi

10 - Rasm. "Sozlamalar" funksiyasi



10.a - Rasm

Terminal parametrlarini yangilash va o'zgartirish uchun "Sozlamalar" funksiyasini tanlash kerak.




10.b - Rasm


Ushbu bo'limda Foydalanuvchi illovaning qo'shimcha parametrlarini o'rnatishi mumkin.

## 5.4.6. "PoS haqida" funksiyasi

11 - Rasm. "PoS haqida" funksiyasi



11.a - Rasm




11.b - Rasm

Akkaunt haqida kerakli ma'lumotlarni ko'rish uchun Ilova menyusida "PoS haqida" funksiyasini tanlash kerak.


Akkaunt ma'lumotlari.

## 5.4.7. "Chiqish" funksiyasi

12 - Rasm. "Chiqish" funksiyasi



12.a - Rasm



12.b - Rasm

Akkauntidan chiqish uchun Ilovaning menyusida "Chiqish" funksiyasini tanlash kerak.

"Chiqish" funksiyasi tanlangandan so'ng, Foydalanuvchi yana akkauntini faollashtirish sahifasiga yuboriladi.

## 6. Shaxsiy kabinet bilan ishlash

MARTA Terminal mobil ilovasini boshqarish uchun Foydalanuvchiga bir vaqtning o'zida Shaxsiy kabinetga kirish huquqi beriladi. Shaxsiy kabinet quyidagi xususiyatlar va funksiyalarni o'z ichiga oladi:

- Barcha to'lovlar bo'yicha tahlillar, batafsil hisobotlar va ma'lumotlarga ega bo'lgan qulay foydalanuv interfeysi;
- Savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlari uchun MARTA Terminal akkauntlarini boshqarish interfeysi

Shaxsiy kabinet - bu MARTA to'lov tizimining veb-xizmati bo'lib, u Foydalanuvchiga savdo va xizmat ko'rsatish tashkiloti va MARTA Terminal ilovasi orqali qabul qilingan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi.

Shaxsiy kabinetga kirish quyidagi havola orqali amalga oshiriladi (13 - Rasmga qarang. Avtorizatsiya sahifasi): <https://cpanel.marta.uz>

13 - Rasm. Avtorizatsiya sahifasi

**Foydalanuvchi nomi:** Foydalanuvchining elektron pochta manzili


**Parol:** parol ro'yxatdan o'tgandan so'ng Foydalanuvchining elektron pochtasiga yuboriladigan token (havola) orqali o'rnatiladi.

## 6.1. Bosh sahifa

Shaxsiy kabinetning birinchi sahifasi savdo va xizmat ko'rsatish korxonasining savdo bo'yicha umumiy statistik ma'lumotlarini ko'rsatish paneli bo'lib, bu erda quyidagi ko'rsatkichlar ko'rsatilgan (14-Rasmga qarang. Bosh sahifa):

- Ilova orqali qabul qilinayotgan to'lovning o'rtacha summasi (o'rtacha savdo chekinging miqdori);
- Kunlik operatsiyalarning o'rtacha soni (oylar va choraklar bo'yicha sozlanishi mumkin);
- Ushbu Shaxsiy kabinet orqali boshqariladigan savdo korxonalarini soni;
- Ushbu Shaxsiy kabinetga ulangan mobil qurilmalar soni (Ilova uchun yaratilgan akkauntlar soni);
- Tanlangan davr uchun to'lovlar dinamikasi;
- Ilova orqali qabul qilingan karta turlarining nisbati.

14 - Rasm. Bosh sahifa






## 6.2 Shaxsiy kabinetning menyusi

Sahifaning chap qismida Shaxsiy kabinetning bo'limlariga havolalar ko'rsatilgan (15 - Rasmga qarang. Shaxsiy kabinet menyusi), ular:

- Savdo shaxobchalari - ushbu Shaxsiy kabinet orqali boshqariladigan korxonalar ro'yxati (16 - Rasmga qarang. Savdo shaxobchalari)
- POS terminallar - MARTA Terminal ilovasidan foydalangan holda terminal rejimida ishlaydigan mobil qurilmalar ro'yxati (17 - Rasmga qarang. POS terminallar)
- Tranzaksiya kanallari – Ekvayring bankning protsessing/to'lov tizimidagi Foydalanuvchining identifikatorlari ro'yxati (18 - Rasmga qarang. Tranzaksiya kanallari)
- Tranzaksiyalar - Ilova orqali qabul qilingan barcha to'lovlar ro'yxati (19 - Rasmga qarang. Tranzaksiyalar)
- Hisobotlar - korxonalar va terminallar bo'yicha to'lovlarning umumiy hisobotlari (20 - Rasmga qarang. Hisobotlar)
- Hujjatlar – Foydalanuvchi ko'rib chiqishi uchun kerak bo'lgan hujjatlar to'plami
- Qo'llanma - universal qiymatlar ro'yxati

15 - Rasm. Shaxsiy kabinet menyusi



## 6.3 Bo'lim: Savdo shaxobchalari

Savdo shaxobchalari bo'limida (16 - Rasmga qarang. Savdo shaxobchalari) ushbu Shaxsiy kabinetda boshqariladigan korxonalar ro'yxati ko'rsatiladi. Ushbu sahifaning funksiyalari:

- Korxonalar qo'shimcha bo'limlar/filial qo'shish ("Bo'limlar" ustunida "+1" belgisini bosib);
- Qo'shimcha terminallar qo'shish ("POS terminallar" ustunida "+1" tugmasini bosib)

16 - Rasm. Savdo shaxobchalari

The screenshot shows the MARTA merchant interface. The top navigation bar includes the MARTA logo, the user name 'MayaSoft [MERCHANT]', and the time 'boshlangan vaqt: 17:53:48'. The left sidebar contains navigation icons for 'Bosh sahifa', 'Savdo shaxobchalari', 'POS terminallar', 'Transaksiya kanallari', 'Tranzaksiyalar', 'Natija taqqoslashlari', 'Hisoblar', 'Hujjatlar', 'Qo'llanma', and 'Xazinachilar'. The main content area is titled 'Savdo shaxobchalari' and includes a search bar and a table of sales branches. The table has the following columns: 'Savdo korxonasi', 'Manzil & Telefon', 'Bank rekvizitlari', 'Sho'bxalar', 'POS terminallar', 'Oxirgi transaksiya', and 'Holat & R.o.'sana'. The table contains one entry for 'OOO MAYA SOFT' with the following details: 'Manzil: TOSHKENT SH, MIRZO ULUGBEK TUMANI 54/17', 'E-mail: marfa.test6767@gmail.com', '998000000001', '+1' in the 'Sho'bxalar' column, '3 dona +1' in the 'POS terminallar' column, '19.10.22' in the 'Oxirgi transaksiya' column, and 'ACTIVE' in the 'Holat & R.o.'sana' column. Below the table, there is a pagination control showing '1 dan 1 gacha 1 satrilar (1,787 ta satrdan saralangan)' and buttons for 'oldin.', '1', and 'keyin.'. The footer contains the copyright information: '© 2019, MayaSoft LTD. Savollaringiz bormi? Bizga qo'ng'iroq qiling: +998 71 203 31 21'.

## 6.4 Bolim: POS terminallar

POS - terminallar bo'limi (17 - Rasmga qarang. POS terminallar) ushbu Shaxsiy kabinetda boshqariladigan mobil qurilmalar ro'yxatini ko'rsatadi. Ushbu sahifaning funksiyalari:

- Qo'shimcha terminal qo'shish ("Terminalni yaratish" tugmasini bosish orqali);
- Terminalni bloklash ("🔒" belgisini bosib);
- Terminal uchun "Qaytarish" operatsiyasini yoqish/o'chirish ("🔄" belgisini bosish orqali);
- Terminallar ro'yxatini buferga ko'chiring, xls, csv, pdf formatida yuklab olish.

17 – Rasm. POS terminallar

POS terminallar : OOO MAYASOFT

Bosh sahifa / Mijozlar / Sub'ektlar / POS terminallar

Terminal yaratish

Qidiruv:  25 satrni ko'rsatish Copy Excel CSV PDF oldin 1 keyin.

Egasi / foydalanuvchi Qurilma ID si	Model & versiya	Bank	Telefon	Yaratilgan vaqti	Ishga tushirilgan	Tranzaksiyalar	Oxirgi transaksiya	Holat
OOO MAYASOFT c890982f-907-40e5-b94d-09eddbbbe5af	samsung, SM-A115F v.71		998911111111	19.08.22 12:39	19.10.22 15:45	29 dona	19.10.22 16:54	Faol
OOO MAYASOFT M 1882711e-3d03-4a58-bd02-054f6ea558d	samsung, SM-A115F v.63		998910001111	29.07.22 17:56	22.09.22 05:58	26 dona	21.09.22 12:28	Faol
OOO MAYASOFT 88edd982-32a9-4e98-bc6a-508f062e0f	samsung, SM-A115F v.71		998000000001	29.07.22 17:38	12.10.22 20:26	26 dona	12.09.22 12:17	Faol

1 dan 3 gacha 3 satrilar (2,174 ta satrdan saralangan) oldin 1 keyin.

© 2019. MayaSoft LTD. Savollaringiz bormi? Bizga qo'ng'iroq qiling: +998 71 203 31 21

## 6.5 Bo'lim: Tranzaksiya kanallari

Tranzaksiya kanallari bo'limida (18-Rasmga qarang. Tranzaksiya kanallari) Ekvayring bankning protsessing/to'lov tizimida ushbu Shaxsiy kabinetga ulangan barcha korxonalarning identifikatorlari ko'rsatiladi. Ushbu sahifaning funksiyalari:

- Qo'shimcha qurilmalarni qo'shish ("POS terminallar" ustunida "+1" belgisini bosib);
- Alohida tranzaksiya kanallar uchun "сверка итогов"/kun yopish operatsiyasini bajarish (" ↔ " belgisini bosish orqali).

18 - Rasm. Tranzaksiya kanallari

Tranzaksiya kanallari ro'yxati

Bosh sahifa / Mijozlar / Tranzaksiya kanallari

25 satrni ko'rsatish Qidiruv:

#	Egasi	Processing	Ekvayr ID	Merchant ID	POS ID	Ustunlik	Qoida turi	POS terminallar
4366	OOO MAYASOFT	Humo		008220086668402	081110QS	1	RID [A088000100]	3 dona +1

1 dan 1 gacha 1 satrlar (1,811 ta satrdan saralangan)

oldin. 1 keyin.

© 2019. MayaSoft LTD. Savollaringiz bormi? Bizga qo'ng'iroq qiling: +998 71 203 31 21

## 6.6 Bo'lim: Tranzaksiyalar

Tranzaksiyalar bo'limi (19 - Rasmga qarang. Tranzaksiyalar) ushbu Shaxsiy kabinetga ulangan mobil qurilmalar (SoftPOS terminallar) yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni ko'rsatadi. Ushbu sahifaning funksiyalari:

- To'lov chekini ko'rsatish;
- To'lovlar amalga oshirilgan joyni ko'rsatish;
- Terminallar ro'yxatini filtrlab buferga ko'chirish va xls, csv, pdf formatida yuklab olish.

### 19 - Rasm. Tranzaksiyalar

Karta	Summa	Vaqt	Qabul qilgan	Bank	Egasi	RRN raqami	Paket #	Holat
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	19.10.22 16:53	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	229211100562	19.10.22 #1	117 DECLINED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	100 UZS	19.10.22 16:02	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	229211775780	19.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	17.10.22 04:30	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923579971	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	17.10.22 04:27	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923578475	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	17.10.22 04:23	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923577614	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	17.10.22 04:20	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923577372	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	0 UZS	17.10.22 04:12	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923574958	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	100 UZS	17.10.22 04:09	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923573249	17.10.22 #1	000 AUTHORIZED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	100 UZS	17.10.22 04:07	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228923572826	17.10.22 #1	116 DECLINED
9860 1001 **** 2127 exp: 02/26	1 UZS	14.10.22 14:28	id: c900902f-8f07-40e5-b94d-90edcbbbe5af POS ID: 081110QS		OOO MAYASOFT MID: 008220088888402	228709359337	14.10.22 #1	000 AUTHORIZED

## 6.7 Bo'lim: Hisobotlar

Hisobotlar bo'limida (20-Rasmga qarang. Hisobotlar) ushbu Shaxsiy kabinetga ulangan korxonalar va terminallar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar ko'rsatiladi. Ushbu sahifaning funksiyalari:

- Terminallar va korxonalar bo'yicha hisobotlarni alohida tuzish;
- Terminallar ro'yxatini filtrlab buferga ko'chirish va csv, pdf formatida yuklab oling.

20 - Rasm. Hisobotlar

Qunilma ID si	Telefon raqami	Egasi / foydalanuvchi	Bank	Yaratilgan vaqti	Ishga tushirilgan	Tranzaksiyalar	Oxirgi tranzaksiya	Summa, Netto	Holat
68edd962-32a9-4e98-bc6a-50ff0f082e0f	998000000001	OOO MAYASOFT		29.07.22 17:38	12.10.22 20:26	16	12.09.22 12.17	5,712	Faol
1882711e-3d03-4a58-bd02-654fffea558d	998910001111	OOO MAYASOFT		29.07.22 17:56	22.09.22 05:58	5	21.09.22 12.28	104	Faol
c960962f-8f07-40e5-b94d-69edbbbbe5af	998911111111	OOO MAYASOFT		19.08.22 12:39	19.10.22 15:45	3	19.10.22 16:54	226	Faol

## 8. Dasturning ta'minotchisi haqida

Ilovaning dasturchisi MayaSoft mas'uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi.

Manzi: O`zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug`bek ko`chasi, 56A uy, 100125

Elektron manzil: info@marta.uz

Tel.: +998 71 203 31 21

Veb-sayt: marta.uz